

GRUNT SUVINING EKOLOGIYAGA SALBIY TA'SIRI

Bekzod Umarov Baxtiyorjon o'g'li

And QXAI assistenti

Shamshidinova Mushtariy Pattojon qizi

And QXAI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yer yuzasi grunt suvlarining ekologik holati, u suvlarni tozalab ichimlik va sug'orish maqsadida foydalanish bo'yicha qilinishi lozim bo'lgan ishlar bo'yicha ilmiy ma'lumotlar berilgan

Kalit so'zlar: grunt suvlari, yer po'sti, ifloslangan suvlar, g'ovak jinslar, kasallik tarqatuvchi bakteriyalar, mexanik tarkib, diareya, filtrlash

Аннотация: В данной статье представлена научная информация об экологическом состоянии подземных вод на поверхности земли, о работах, которые следует провести по их очистке и использованию для питьевых и ирригационных целей.

Ключевые слова: грунтовые воды, корка, загрязненная вода, пористые породы, болезнетворные бактерии, механический состав, диарея, фильтрация.

Annotation: This article provides scientific information on the ecological status of ground water on the surface of the earth, the work that should be done on cleaning it and using it for drinking and irrigation purposes.

Key words: ground water, crust, polluted water, porous rocks, disease-spreading bacteria, mechanical composition, diarrhea, filtration.

Kirish

Yer po‘stining yuza qismidagi g‘ovak jinslar orasida joylashgan suvlar grunt suvlari deyiladi. Grunt suvlari yer yuzasida joylashgan suvlardan katta maydonlarda tarqalgan bo‘lib, suv o‘tkazmaydigan qatlam ustida joylashganligi bilan farq qiladi.

Grunt suvlari ham yer yuzasidagi suvlar kabi atmosfera yog‘inlari va yer ustki suvlaridan hosil bo‘ladi. Yer po‘stining yuza qismidagi g‘ovak jinslar orasida joylashgan suvlar grunt suvlari deyiladi. Grunt suvlari yer yuzasida joylashgan suvlardan katta maydonlarda tarqalgan bo‘lib, suv o‘tkazmaydigan qatlam ustida joylashganligi bilan farq qiladi. Grunt suvlari ham yer yuzasidagi suvlar kabi atmosfera yog‘inlari va yer ustki suvlaridan hosil bo‘ladi. Grunt suvi tarkibida juda ko‘p miqdorda tuz mavjud. Jumladan, kalsiy gidrokorbanat ($\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$), magniy gidrokorbanat ($\text{Mg}(\text{HCO}_3)_2$), kalsiy sulfat, magniy sulfat, kalsiy xlorid, magniy xlorid kabi tuzlar. Bu tuzlar esa tabiatga ham o‘zining salbiy ta‘sirini o‘tkazadi. Grunt suvi tuproq unumdorligini pasaytiradi. Grunt suvi bilan muntazam sug‘orilgan tuproq qattiq, sho‘r bosgan bo‘lib, u yerda yashil o‘simliklar unishi qiyin bo‘ladi. Shu sababli tuproq unumdorligi pasayadi. Keling uni misollar bilan ko‘rib chiqamiz.

Grunt suvida sug‘orilgan yerlar



Oqava suvdan sug'orilgan yerlar



Atrofimizni rang-barang olamsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Insonlarga o'simliklarning ta'siri juda katta. Shuning uchun ham ularning o'sishi uchun qulay sharoit bo'lishi lozim. Ekologik muammo bo'lib qolayotgan grunt suvi, o'simliklarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmayapti. O'simliklar tuproqda o'sganligi sababli, tuproq ham shu suvdan muntazam sug'orilgan bo'lsa, o'simlik rivojlanishi qiyin kechadi. Atrofimizni rang-barang olamsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Insonlarga o'simliklarning ta'siri juda katta. Shuning uchun ham ularning o'sishi uchun qulay sharoit bo'lishi lozim. Ekologik muammo bo'lib qolayotgan grunt suvi, o'simliklarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmayapti. O'simliklar tuproqda o'sganligi sababli, tuproq ham shu suvdan muntazam sug'orilgan bo'lsa, o'simlik rivojlanishi qiyin kechadi. Yashil o't-o'simliklar tabiatga va ekologiyaga juda katta foydasi bor. Chunki ular fotosintez jarayonini amalga oshirib, havoni kislorod bilan boyitadi.



Grunt suvi tozalanmaganligi sababli inson va hayvon organizmiga salbiy ta'siri bor. Dunyoda har yili 3 milliondan ortiq insonlar ifloslangan suv tufayli vafot etadi. Ko'pincha ifloslangan suvdan kelib chiqqan diareya kasalliklari besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'limining asosiy sabablaridan biri bo'lib, har yili taxminan 525000 o'limga olib keladi. Noto'g'ri sanitariya infratuzilmalari va gigiena amaliyoti ko'plab mahalliy suv manabalarini ifloslantiradi hamda suv orqali yuqadigan kasalliklarning aksariyati ifloslangan suvni iste'mol qilish natijasida yuzaga keladi..Har yili bolalarda 1,7 milliard diareya kasalligi qayd etiladi.



Tabiatimizni asrab qolish o'z qo'limizda. Ekologik muammolar juda ko'p. Ulardan eng asosiysi hayot manbai bo'lgan suvdir. Statistika ma'lumotlariga qaraganda 2050-yilga borib yer yuzida suv tanqisligidan 5 mlrd kishi aziyat chekishi mumkin. Mana birgina grunt suvi insonga ham, hayvonga ham, o'simlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rib chiqdik. Buning oldini olish uchun chekka nuqtalarga toza ichimlik suvini yetkazib berishdir. Atrof-muhit ekologiyasiga hamma birday javobgar. Tabiat qancha toza bo'lsa, salomatligimiz ham shuncha yaxshi bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino aytganidek: „Agar chang va g'ubor bo'lmasa, odam ming yil yashashi mumkin edi“. Insonlar ham grunt suvlaridan iste'mol qilmaslik uchun suvni isrof qilmaslik kerak. Chunki suv obi-hayot. Go'zal va betakror tabiatimizni betakror insonlar bilan birga asrab qolaylik!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alixonov.B.B O‘zbekiston Respublikasida atrof muhit holoti va tabiiy resurslardan foydalanish to‘g‘risida milliy ma’ruza T.2008 Y.
2. P.Gulyamov, M.Avezov, N.Saidova TOSHKENT «MITTIYULDUZ» 2020 5-geografiya darsligi